

TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNI MAMLAKATIMIZDA YANADA TAKOMILLASHTIRISH

Misirov Asliddin,

misirovasliddin@gmail.com

Buxgalteriya hisobi kafedrası asisstanti, SamISI

Suyunova Sevinch Lutfullayevna,

Buxgalteriya hisobi va menejment fakulteti BH-324

sevinchsuyunova2206@gmail.com

Abstract. This article analyzes the state of foreign economic activity of the Republic of Uzbekistan and provides proposals and recommendations for its further development and improvement. The issues of integration with the world economy, increasing export potential, attracting foreign investments, and stimulating foreign economic activity through improving the system of customs and tax incentives are covered. Also, the article, based on the analysis of existing problems, considers the directions of liberalization of foreign trade policy and production of competitive products.

Keywords: foreign economic activity, export, import, investments, foreign trade policy, economic integration, customs, liberalization, competitiveness, economic reforms.

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyati holati tahlil qilinadi hamda uni yanada rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar beriladi. Jahon iqtisodiyoti bilan integratsiyalashuv, eksport salohiyatini oshirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish, bojxona va soliq imtiyozlari tizimini takomillashtirish orqali tashqi iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, maqolada mavjud muammolar tahlili asosida tashqi savdo siyosatini liberallashtirish va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish yo'nalishlari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: tashqi iqtisodiy faoliyat, eksport, import, investitsiyalar, tashqi savdo siyosati, iqtisodiy integratsiya, bojxona, liberallashtirish, raqobatbardoshlik, iqtisodiy islohotlar.

Абстрактный. В статье анализируется состояние внешнеэкономической деятельности Республики Узбекистан и даются предложения и рекомендации по ее дальнейшему развитию и совершенствованию. Освещены вопросы интеграции в мировую экономику, повышения экспортного потенциала, привлечения иностранных инвестиций, стимулирования внешнеэкономической деятельности путем совершенствования системы таможенных и налоговых льгот. В статье также рассматриваются направления либерализации

внешнеторговой политики и производства конкурентоспособной продукции на основе анализа существующих проблем.

Ключевые слова: внешнеэкономическая деятельность, экспорт, импорт, инвестиции, внешнеторговая политика, экономическая интеграция, таможня, либерализация, конкурентоспособность, экономические реформы.

Kirish

Bugungi globallashuv sharoitida mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotining muhim omillaridan biri – bu tashqi iqtisodiy faoliyatni samarali tashkil etish va rivojlantirish hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi ham jahon bozoriga integratsiyalashish, xorijiy savdo aloqalarini kengaytirish, investitsion muhitni yaxshilash orqali iqtisodiy o‘rinishni ta’minlashga intilmoqda. Tashqi iqtisodiy faoliyat nafaqat eksport-import jarayonlarini, balki xalqaro moliyaviy, texnologik, ishlab chiqarish va investitsion hamkorlikni ham o‘z ichiga oladi. Shu bois, so‘nggi yillarda mamlakatimizda bu yo‘nalishda tub islohotlar amalga oshirilib, tashqi savdo tizimi liberallashtirilmoqda, qulay huquqiy va institutsional muhit yaratilmoqda. Ushbu maqolada O‘zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatni takomillashtirish yo‘nalishlari, mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ko‘rib chiqiladi.

Asosiy qism

O‘zbekistonda ushbu sohani isloh qilishga qaratilgan chora-tadbirlar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ayniqsa so‘nggi yillarda bu borada tub o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan tashqi savdo operatsiyalarini soddalashtirish, eksportchilar uchun qulayliklar yaratish va ortiqcha byurokratik to‘siqlarni bartaraf etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shuningdek, eksport-yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirish, xorijiy investorlar uchun kafolatlangan huquqiy himoya tizimini joriy etish tashqi iqtisodiy faoliyatning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. O‘zbekistonning eksport salohiyatini kengaytirish uchun sanoat mahsulotlari, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va xizmatlar eksportini ko‘paytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ushbu yondashuv eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni kengaytirish va tashqi bozorlar bilan uzviy aloqalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bojxona va soliq tizimlarining raqamlashtirilishi tashqi iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Elektron deklaratsiya, “yagona darcha” tizimi, bojxona nazoratining avtomatlashtirilgan mexanizmlari amaliyotga joriy qilinmoqda. Bu islohotlar natijasida yuk tashish va rasmiylashtirish bilan bog‘liq xarajatlar va vaqt sezilarli darajada qisqarayotgani aytilgan.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish tashqi iqtisodiy faoliyatning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, u yangi texnologiyalar, malakali kadrlar va zamonaviy menejmentni olib kirish imkonini beradi. So‘nggi yillarda O‘zbekiston hukumati

tomonidan xorijiy investorlar uchun maxsus iqtisodiy zonalar tashkil etildi, soliqqa oid imtiyozlar berildi, investitsiya faoliyatini himoyalovchi normativ hujjatlar qabul qilindi. Mutaxassislar ta'kidlaganidek: "Investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakat o'ziga xos strategik sherikliklar yaratmoqda va barqaror iqtisodiy o'sishga zamin yaratmoqda" [2]. Tashqi iqtisodiy faoliyatda mintaqaviy hamkorlik alohida ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga katta e'tibor bermoqda. Xususan, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston va Tojikiston bilan qo'shma korxonalar tashkil etish, tranzit imkoniyatlaridan foydalanish orqali o'zaro manfaatli hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Bu borada Toshkent xalqaro konferensiyasida aytilgan quyidagi fikr diqqatga sazovor: "Markaziy Osiyodagi o'zaro iqtisodiy integratsiya – bu nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy barqarorlik omilidir". Bunday yondashuv mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlash va umumiy iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi islohotlari xalqaro standartlar asosida olib borilayotgani, eksport va investitsiyalar salohiyatini oshirish, huquqiy va texnologik asoslarni mustahkamlash orqali mamlakatning jahon iqtisodiyotidagi o'rnini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Biroq bu borada hali bajarilishi lozim bo'lgan muhim vazifalar – ishlab chiqarish quvvatlarini diversifikatsiya qilish, mahsulot sifati va raqobatbardoshligini oshirish, transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish kabi ustuvor yo'nalishlar mavjudligini e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Shu bilan birga, tashqi iqtisodiy faoliyatni takomillashtirishda zamonaviy infratuzilmaning mavjudligi ham hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, yuk tashish tizimlarining samaradorligi, avtomobil va temiryo'l yo'llari, logistika markazlari va omborxonalarning texnik jihozlanganligi xalqaro savdo jarayonlarining uzluksizligini ta'minlashda katta rol o'ynaydi. Mamlakatimizda yirik transport-logistika hublarini tashkil etish va ularni raqamli boshqaruv tizimlari bilan uyg'unlashtirish orqali bu yo'nalishda ancha ijobiy natijalarga erishilmoqda. Xalqaro transport koridorlarida O'zbekistonning faol ishtirokini kuchaytirish esa tranzit salohiyatimizni yanada oshirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, tashqi iqtisodiy faoliyatda malakali kadrlar tayyorlash masalasi ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Global savdo munosabatlarining murakkablashib borayotgani xalqaro biznes yuritish, savdo muzokaralari olib borish, huquqiy va moliyaviy jihatlarni chuqur biladigan mutaxassislar faoliyatiga bo'lgan ehtiyojni oshiradi. Shu bois oliy ta'lim muassasalarida xalqaro iqtisodiyot, xalqaro huquq, bojxona ishi va logistika sohalarida kadrlar tayyorlash sifati doimiy ravishda takomillashtirib borilmoqda. Xalqaro tajriba almashinuvlari, qo'shma dasturlar va xorijiy ekspertlar bilan hamkorlik orqali milliy ta'lim tizimi bu ehtiyojlarga javob bera boshlamqda.

Shuningdek, tashqi iqtisodiy faoliyatda biznes muhiti va tadbirkorlik erkinligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Ruxsat berish tartib-taomillarining soddalashtirilishi, elektron xizmatlar orqali hujjatlarni tezkor rasmiylashtirish imkoniyatining kengaytirilishi – bularning barchasi tadbirkorlarning tashqi bozorga chiqish jarayonida duch keladigan byurokratik to'siqlarni kamaytirishga xizmat qilmoqda. Davlat tomonidan ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlash choralariga qaramay, joylardagi ayrim muammolar – hududiy logistik cheklovlar, malakali kadrlar yetishmovchiligi, marketing va brending bo'yicha resurslar tanqisligi kabi muammolar hanuz mavjud. Bu muammolarni bartaraf etish orqali tashqi iqtisodiy faoliyat yanada keng quloch yoyishi mumkin.

Eksport qilinayotgan tovarlarning raqobatbardoshligi nafaqat narxga, balki ekologik xavfsizlik, energiya samaradorligi va xalqaro sifat talablari asosida baholanadi. Shu sababli, xalqaro standartlarga muvofiq mahsulotlar ishlab chiqarish, sifat menejmenti tizimlarini joriy qilish va akkreditatsiyalash tizimini rivojlantirish strategik ahamiyatga ega. Yana bir muhim jihat – tashqi iqtisodiy faoliyatda axborot texnologiyalarining tutgan o'rnini. Raqamli platformalarning kengayishi, elektron tijoratning jadal rivojlanishi korxonalarga yangi bozorlarni zabt etish va savdo operatsiyalarini masofadan turib amalga oshirish imkonini bermoqda. O'zbekistonda ham "raqamli eksport" tushunchasi shakllanib bormoqda, bu esa an'anaviy savdo yo'llariga muqobil sifatida xizmat qilmoqda. Elektron savdo maydonchalari orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilar xorijiy xaridorlar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqaga chiqib, vositachilarsiz eksportni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Bugungi dunyo o'zgaruvchanlik, noturg'unlik va globallashuv bilan tavsiflanmoqda. Bunday sharoitda har bir davlat o'zining tashqi iqtisodiy faoliyatini strategik va zamonaviy yondashuvlar asosida olib borishi hayotiy zaruratga aylanmoqda. O'zbekiston Respublikasi ham ushbu global o'zgarishlar markazida o'zining tashqi iqtisodiy salohiyatini takomillashtirishga qaratilgan islohotlar bilan ishtirok etmoqda. Biroq tashqi iqtisodiy faoliyatda ilgari surilgan klassik mexanizmlar bugungi shiddatli texnologik taraqqiyot davrida yetarli bo'lmay qolmoqda. Shu sababli, innovatsion yondashuvlar, barqaror rivojlanish tamoyillari va ekologik talablar ushbu faoliyatning yangi mezonlariga aylanmoqda. Bir jihatga e'tibor qaratish lozim: xalqaro iqtisodiy aloqalarda bugungi kunda mahsulot va xizmatdan tashqari bilim va texnologiya ham muhim eksport resursiga aylangan. Shuningdek, xalqaro savdo siyosatida geosiyosiy ziddiyatlar, proteksionistik choralar va global logistika muammolari kabi omillar tashqi iqtisodiy barqarorlikka tahdid solmoqda. Pandemiya davridagi tajriba shuni ko'rsatdiki, har qanday inqirozda tashqi iqtisodiy aloqalarning moslashuvchanligi va barqarorligi muhim strategik ustunlikka aylanadi. Shu bois, O'zbekiston uchun muqobil eksport yo'nalishlarini rivojlantirish, regional integratsiyani chuqurlashtirish va savdo sheriklarini diversifikatsiya qilish kabi

yondashuvlar zamon talabi hisoblanadi. Yana bir dolzarb masala – yashil iqtisodiyot va ekologik barqarorlik. Jahon bozorida mahsulotlarning raqobatbardoshligi nafaqat ularning sifati va narxiga, balki ishlab chiqarish jarayonlarining ekologik standartlarga mosligiga ham bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Bu esa, eksport qilinadigan mahsulotlarda karbonat izi (carbon footprint), qayta tiklanuvchi energiya ulushi va ekologik tozalikka oid sertifikatlar mavjudligini talab etadi. O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy siyosatida bu mezonlar hali yetarli darajada aks etmagan bo‘lsa-da, yaqin yillarda bu talablar keskin ahamiyat kasb etishi kutilmoqda.

Shuningdek, tashqi iqtisodiy faoliyatda davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash zarur. Davlat faqat tartibga soluvchi emas, balki infratuzilma yaratuvchi, risklarni kamaytiruvchi va xususiy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlovchi sub‘yekt sifatida faol harakat qilishi kerak. Xususan, eksport kreditlari, sug‘urta mexanizmlari, xalqaro huquqiy himoya vositalari, savdo vakolatxonalar kabi institutsional vositalar orqali milliy ishlab chiqaruvchilarning tashqi bozorlarga chiqishi yengillashtirilishi mumkin. Bundan tashqari, zamonaviy tashqi iqtisodiy strategiyada “iqtisodiy diplomatiya” tushunchasi alohida o‘rin tutadi. Diplomantik vakolatxonalar nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish vositasi sifatida faol ishlashi lozim. Savdo vakillarining xorijdagi mavjudligi, mahalliy tadbirkorlik uchun xalqaro ko‘rgazmalar, biznes-forumlar, savdo missiyalari tashkil etilishi tashqi iqtisodiy faoliyatda natijadorlikni oshiradi.

Yangi davr tashqi iqtisodiy siyosatida yana bir muhim tushuncha – “raqamli diplomatiya”dir. Elektron platformalar, onlayn savdo kanallari, virtual ko‘rgazmalar orqali savdo aloqalarini yo‘lga qo‘yish tobora dolzarb bo‘lmoqda. O‘zbekiston korxonalari uchun global e-commerce maydonlariga chiqish – Amazon, Alibaba, Etsy singari platformalarda faol ishtirok etish eksport imkoniyatlarini ancha kengaytirishi mumkin.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada takomillashtirish uchun davlat, xususiy sektor, ta’lim tizimi va xalqaro hamkorlar o‘rtasida uyg‘un hamkorlik zarur. Bu yo‘nalishda olib borilayotgan chora-tadbirlar kompleks yondashuv asosida davom ettirilsa, O‘zbekiston nafaqat mintaqaviy, balki global iqtisodiy makonda ham o‘z o‘rnini mustahkamlashi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti, 2022. <https://president.uz>
2. UNCTAD Investitsiya hisobotlari, 2022
3. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Darslik / G‘.S. Raxmatova, Z.A. Jo‘raeva. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. – <https://stat.uz>
5. Qodirov A., Salimov T. “Tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari”. – Toshkent: “Iqtisod-Moliya”, 2019.
6. Raxmatov T.T. Xalqaro logistika va bojxona ishi asoslari. O‘quv qo‘llanma /. – Toshkent: Iqtisodiyot va moliya, 2021.